



## RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDAGI INNOVATSIYALAR.

Po'latova Muxlisa Otabek qizi.

Samarqand davlat chet tillari instituti

Roman-German tillari fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:Ergasheva Dilnoza Tohirova

**Anontatsiya:** Shiddat bilan rivojlanib kelyotgan zamonaviy dunyoda, chet tiliga bo'lган ehtiyoj ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Shu jumladan rus tilini ham chetlab o'tgani yo'q, negaki rus tili xalqaro tillar qatoriga kirganligi sababli biznes, ta'lim, xalqaro biznes aloqalar sohalarida muhim o'rinni egallaydi. Ushbu tilni samarali o'rganish bo'yicha turli xil innovatsion metodlar zarur. O'rganuvchilarga yanada qiziqarli bo'lishi uchun zamonaviy texnalogiyalar va onlayn platformadan foydalanishi, an'anaviy va zamonaviy usullarni solishtirgan holatda o'rganish, rus tilida tabiiy muhitni yaratish, turli sohalarda maxsus rus tili kurslarini ishlab chiqish kabi yangi usullardan foydalanish muhimdir.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, metodlar, zamonaviy texnalogiyalar, rivojlantirish, samaradorlik, usullar va kurslar.

Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz va zamonaviy axborot-texnalogiyalsiz tasavvur qilish qiyin. Shu jumladan qandaydir sohani o'rganish jarayonida texnalogiyani o'rni yildan yilga kengayib bormoqda va tillarni o'rganish davomida ham samarali usullardan foydalanyapti. Shu qatorda rus tilini o'rganish jarayonida turli xil onlayn platformalar, audio va video ko'rsatuvlar, o'yinlar orqali yanada osonroq o'rganish usullari ko'rib chiqilmoqda. Misol uchun, ko'plab o'rganuvchilar tomonidan tadqiqot ishlari o'tkazilganda, ular asosan videolar va onlayn platformalar orqali tez va oson o'rganyotgani haqida ma'lumot berishdi.



Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, onlayn platformalardan foydalanishni kengaytirish lozim. Masalan,Duolingo, Alica,Memrise,Anki va Quizlet kabi dasturlar so'z boyligini oshirish va talaffuzni oshirishga katta yordam beradi. Bundan tashqari,turli xil kurslar orqali o'rganuvchi o'ziga mos bo'lgan darajalarda o'rganishlari mumkin,bularga Udemy,Stepik kabi platformalarni misol qilishimiz mumkin. Bundan tashqari hozirgi shiddat bilan rivojlanyotgan axborot -texnologiyalari sun'iy intellect orqali turli xil tillarda muloqot qilish imkonini yaratdi,ChatGPT va boshqa AI assistentlar orqali rus tilida kun davomida istagan vaqt,istagan joyda muloqat qilishlari mumkin. Natijada,o'rganuvchilar rus tilida ravon va tutilmasdan gapira olish imkonini yaratadi. Hozirgi kunda yoshlar platformalardan to'g'ri foydalana olsalar,til o'rganish imkoniyati avvalgi vaqtdan

ancha samarali va mustaqil o'rganishni osonlashtiradi. Shu tufayli til o'rganishda turli xil platformalarni yanada rivojlantirish va bu innovatsiyalarni ta'limda targ'ib qilish kerak. XXI asr axborot-texnologiya rivojlangan vaqtida yoshlar internetga bo'lgan qiziqishi yuqori shuning uchun onlayn o'yinlar orqali ham ularni jalb qilish mumkin.

"Usul" so'zi yunoncha "metodos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu yo'l degan ma'noni anglatadi. Endi bu so'z ikki ma'noda qo'llaniladi. 1. An'anaviy usulda rus tili grammatikasini va yozma ko'nikmalarni rivojalntirish usuli bo'lsa, 2.Zamonaviy texnika rus tilini yangi innovatsiyalar orqali tez va oson o'rganishi ham mumkin.

Endi har bir uslubga to'xtalib o'tsak, an'anaviy ta'lim usullari asosan grammatik qoidalarga asoslangan bo'lib,nazariy bilimlarga urg'u beradi.Bu yondashuvning asosiy xususiyatlari, grammatika markaziy o'rinda hisoblanadi darslar asosan grammatik qoidalarni o'rganish bilan o'tkaziladi,tarjima va yozma shaklda o'rganiladi, o'quvchilar ko'proq yozma mashqlar va yozma tarjima bajarishadi. Asosiy urg'u grammatika qaratilgani sababli og'zaki nutq cheklangan bo'ladi va ijtimoiy muloqatga kam e'tibor qaratiladi. Natijada o'quvchilar real hayotda gapirishga qiynalishadi va o'rganuvchilar faqat qonun-qoidalardan tez zerikishadi.

Ikkinchchi yondashuv zamonaviy usulda rus tilini o'rganish,kommunikativ metodlarga asoslanadi va yangi gamifikatsiya(o'yinlashtirish) orqali qiziqarli o'qitish mumkin. Zamonaviy yondashuvda asosiy e'tiborni real hayotda tilni qo'llay olishi,bemalol muloqatga kirisha olishi, audio,video va onlayn platformalar orqali o'quvchini jalg qila oladi. Haqiqiy rus tili muhitini yaratish va muloqatni ko'proq amalda qo'llashi va o'quvchi o'ziga mos bo'lgan uslubda yondashadi. Natijada,o'quvchilar tilni tezroq va tabiiyroq o'zlashtiradi,tilni real hayotda oson qo'llay oladi va darslar qiziqarli tarzda bo'ladi,samarali o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun eng samarali yondashuv ikkala metodni uyg'unlashtirish bo'lib, grammatik bilimlarni mustahkamlash bilan bir qatorda muloqat va yangi innovative texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchilar bu ikkala usullardan foydalangan holda tillarni o'qitishni keng ko'lamda olib borishlari va til o'rganuvchilar sonini ko'paytira olishlari mumkin. Chunki hozirgi davrda tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda, har bir sohada tilga bo'lgan ehtiyoj yuqori,ta'limda, biznes va bundan tashqari har qanday sohaning mukammal mutaxassisini bo'lishi uchun chet tilini o'rni katta o'rinni egallaydi. Shu tufayli tillarni o'qitish sohasida yangi metodlarni yaratish zarur.

Rus tilida tabiiy muhitni yaratish,bu asosiy e'tibor qaratadigan usullardan biri bo'lib barcha o'rganuvchilar nima ish qilishidan qat'i nazar barchasini rus tilida olib borishga harakat qilishlari lozim. Misol uchun, oddiy kundalik odatlarni rus tiliga bog'lab shakklantirish mumkin. Televizor tomosha qilish,video ko'rish yoki internet o'yinlar yoki yana shunga o'xhash hash mashg'ulotlarni rus tilida qilish mumkin. Muloqatda iloji boricha rus tilida gapirishga harakat qilish,uyali qurilmalarni rus tilida qilish,musiqa, YouTube ko'radigan videolarni shu tilda tamosha qilish. Audio kitoblar tinglash, bu tushunishni osonlashtiradi. Onlayn suhbatlar va guruhlarga qo'shilish orqali muloqat qilish. Har kuni 5-10 ta jumla yozish va uni grammatik jihatdan tog'ri tuzishga harakat qilish shu va shunga o'xhash hash kunlik hayotda rus tilidan foydalananish,uni tinglash,gapirish va yozish samarali uslublardan biri. Sezilmagan holda bu usullar ancha foyda bergani yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, rus tili xalqaro biznes,fan, texnalogiya, tibbiyat va boshqa ko'plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy rus tili kurslari umumiyl bilim berishga qaratilgan bo'lsa,maxsus sohalar uchun ishlab chiqilgan kurslar kasbiy muloqot va amaliy foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Haf bir soha vakili chet tilini bilishi orqali shu bilan bir qatorda keng qamrovli bilim va tajribalar shakllantiradi, masalan rus tili orqali tadbirkor va biznesmenlar shu til yuritilyotgan har bir davlat mahsulotlarini, ularning tarixini, qanday yo'lida foydalanish samara berishini biladi. Inson hayotida yig'ilgan tajribasi qilyotgan ishlariga katta foyda keltiradi. Shu bilan bir qatorda aqliy saviyasini quyidan yuqoriga ko'tarish,tashqi ta'sir sezgilarini analizatorlar yordamida idrok etishda yordam beradi. Maxsus rus tili kurslarini ishlab chiqishning ahamiyati;o'quvchilar kasbiy ehtiyojlariga mos keladigan til bilimlarini o'zlashtiradilar, amaliy muloqatga e'tibor qaratiladi,ish joyida hujjatlar bilan ishlashda,mijozlar yoki hamkasblar bilan shuhbat qurishda,umumiyl rus tili kurslariga qaraganda tezroq natija berad,chunki faqat kerakli so'z boyligi va grammatik tuzilmalar o'rganiladi. Tadbirkorlar, Menejerlar,Savdo vakillari,Xalqaro kompaniya xodimlari va boshqalar o'quv kurslarida ishbilarmonlik terminlarini,rasmiy yozishmalar,ishbilarmon suhbatlar va muzokaralar,moliyaviy va iqtisodiy hisobotlar tahlili, prezintatsiya qilish va mijozlar bilan ishlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari barcha sohalarda rus tili katta o'rinni egallaydi, chunki rus tili xalqaroq tillar qatoriga kiradi. Har qanday rivojlangan soha bo'yicha rus tili imkoniyatkari keng ko'lmda qo'llanilyapti,tiibiyot va shunga o'xshash muhim sohalarda ham o'z o'rniga ega. Maxsus rus tili kurslari o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib tez va rivojlangan yo'llarda o'rgatiladi. Natijada har bir soha vakillari yangi innovatsiyalar kiritishlari va zamon bilan hamnafas bo'lgan holda faoliyat olib borishlari mumkin.

Shunday qilib, rus tilini samarali o'rganish uchun zamonaviy va interaktiv usullarni qo'llash,tabiiy til muhitini yaratish, hamda kasbiy ehtiyojlarga mos maxsus kurslar ishlab chiqish muhim. Eng yaxshi natija uchun tilni hayotga integratsiya qilish

va amaliyotga ko'proq e'tibor qaratish,yangi innovatsion usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Journal of new century innovatsiones(2016)
- 2.Т.В.Папова,Л.В.Архипова,Т.П.Баркова,А.А.Гальцева,Т.В.Губанова,Н.Г.Посадская,Л.А.Шахова.(2016)
- 3.Jamol Jalolov:Chet tili o'qitish metodikasi(2012)
- 4.Т.Т.Кельдиев Русский язык .(2021)
5. Русский язык студентам.

Автор:Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А.

Год:2010,1991

6.. Методические рекомендации к организации и проведению уроков обобщающего повторения в форме дидактической игры на материале морфологии. - Л.: ЛГПИ, 1985. - 94 с

7. Русский язык студентам

Автор:Кустова Г.И., Мишина К.И., Федосеев В.А.

Год:2005

8.<https://cyberleninka.ru>

9.[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

10.Методические рекомендации к проведению уроков раздела "Стилистика и культура речи' (Для учителей школ и ПТУ). - Л., ЛГПИ, 1978. - 43